

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISH YO‘LLARI

Yusupova Dildora Turadjanovna

Alfraganus universiteti nodavlat Oliy ta‘lim tashkiloti,
Menejment va marketing kafedrası dotsenti, i.f.n.,
e-mail: dildorayusupova@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning nazariy asoslari, innovatsion faoliyat samaradorligini ta‘minlashda rag‘batlantirish omillari, to‘qimachilik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish yo‘nalishlari va zamonaviy tendensiyalar, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish, KPI qo‘llash usullari va strategik yo‘nalishlar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik, sanoat, korxona, innovatsiya, innovatsion faoliyat, rag‘batlantirish.

Аннотация

В данной статье рассмотрены теоретические основы реализации инновационной деятельности на промышленных предприятиях, мотивационные факторы обеспечения эффективности инновационной деятельности, направления и современные тенденции производства продукции на предприятиях текстильной промышленности, финансирование инновационной деятельности, методы применения KPI и стратегические направления. исследуются.

Ключевые слова: текстильная промышленность, промышленность, предприятие, инновация, инновационная деятельность, стимулирование.

Abstract

In this article, the theoretical foundations of the implementation of innovative activities in industrial enterprises, motivational factors for ensuring the effectiveness of innovative activities, directions and modern trends of product production in textile enterprises, financing of innovative activities, methods of KPI application and strategic directions are researched.

Keywords: textile, industry, enterprise, innovation, innovative activity, stimulation.

KIRISH

Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish, innovatsion faoliyat samaradorligini ta‘minlashda rag‘batlantirishni amalga oshirish omillarini baholash, sanoat korxonalari, xususan to‘qimachilik korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning yo‘nalishlari va zamonaviy tendensiyalarini, innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishni moliyalashtirishni tadqiq etish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishda KPI qo‘llash usullarini ishlab chiqish hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab berish borasidagi ishlarga alohida urg‘u berilmoqda.

O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tishi uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlari, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi.

To'qimachilik sanoatining aholini keng iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishdagi muhim ahamiyatiga qaramay, uni innovatsion faoliyatni boshqarishning ko'pgina nazariy va amaliy jihatlarini yetarli darajada o'rganilmay qolmoqda. Bu borada tarmoqda innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning modernizatsiyalashtirish shartlariga javob beruvchi innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat muhiti sharoitida sanoat korxonalari, xususan to'qimachilik sanoati korxonalari innovatsion faoliyatini rivojlantirish va rag'batlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish masalasi o'zbekistonlik hamda chet ellik olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Bu borada L. Krkosa, X.P. Lankes, K. Meyer, T. Moran, X. Tomann va boshqa xorij olimlarining ilmiy ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Shuningdek, innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish masalasi Isabel Buil, Sara Catalan, Eva Martinezlar, Pascal Paille, Jorge H. Meija Morelos, Vincent Blok, Renate Wesselink, Oldrich Studynka, Ron Kemp, Oliver Masakure kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH olimlari A.N. Boldarev, A.A. Bovin, A.G. Ivanenko, E.A. Lapteva, A.N. Ogoleva, R.A. Fatxutdinov, N.M. Tsisarova, L.YE. Cherednikova, V.Y. Yakimovichlarning asarlarida ham innovatsion jarayonlarni boshqarishga nisbatan nazariy va uslubiy masalalar tadqiq qilingan. MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish omillariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borishgan mutaxassislardan Y.P. Ilin, D.N. Uznadze, P.V. Simonov, G. Atamanchuk, N.I. Shatalova, V.I. Kovalev va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Innovatsion-investitsion jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o'zbekistonlik olimlar X. Amonov, N. Yo'ldoshev, N. Karimov, N. Maxmudov, SH. Majidov, N. Oblomurodov, U. Shodmonova, D. G'ozibekov, va boshqalar, Mintaqalarda investitsion faollikni oshirish muammolari esa B.T. Bayxanov, K.Q. Ismailova, L.R. Shayusupova va boshqa olimlarimizning ilmiy tadqiqotlarida bayon etilgan. Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari M. Sharifxo'jayev, Sh. Zaynutdinov, D. Rahimova, S. G'ulomovlarning ilmiy tadqiqotlari xodimlarni rag'batlantirishda menejmentning muammolari va uning rivojlanish xususiyatlariga bag'ishlangan. Shu bilan birga, ushbu ilmiy tadqiqot ishlarida yengil sanoatning yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan tikuvchilik-trikotaj tarmog'ida innovatsion

jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha to'liq o'rganilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya analiz va sintez, ilmiy umumtahlil, taqqoslash, ekspert baholash va matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

To'qimachilik sanoati korxonalarida ishchi xizmatchi xodimlar faoliyatini rag'batlantirishda ularning mehnati samaradorligini baholash hamda ularni yanada yaxshiroq ishlashga undashda KPI tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda biz, eng avvalo, korxonaning rivojlanish strategiyasini va biznes jarayonlarni tushunishimiz, korxonani rivojlanishidagi ustuvorliklarni aniqlab olishimiz, so'ngra oldimizga qo'yiladigan asosiy maqsad, ya'ni nima qilishimiz kerakligini belgilab olishimiz, faoliyat natijasini qanday o'lchashimiz mumkinligi va ish rejasi qanday tuzilishi kerakligini ishlab chiqishimiz kerak bo'ladi.

Shu bilan birga, KPI tizimining bir qator ijobiy va salbiy jihatlari mavjudligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

KPI tizimining ijobiy jihatlari:

xodimlar 20-30 %ga samaraliroq ishlaydi;

xodimlar, birinchi navbatda, nima vazifani bajarish kerakligini tushunadilar;

xodim ishni muhimlik darajasi bo'yicha amalga oshiradi;

muammolar paydo bo'lish bosqichida aniqlanishi mumkin;

ish haqini adolatli hisoblash imkoniyati bo'ladi;

moddiy rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish imkoni yuzaga keladi.

KPI tizimining salbiy jihatlari:

barcha ko'rsatkichlarni miqdoriy jihatdan o'lchab bo'lmaydi;

KPI tizimini joriy etish ko'p vaqtni talab qiladi;

har bir ko'rsatkichni o'lchash talab qilinadi;

xodimlarga yangi tizimni tushuntirishga vaqt talab qilinadi.

KPI tizimini har bir xodimning faoliyatini baholash, shuningdek har bir bo'lim, faoliyat jarayoni va tashkilot uchun ham joriy etish mumkin.


Korxonaga KPI tizimini joriy etishda bir qator mezonlarga asoslaniladi.

To'qimachilik sanoati korxonalarining tarmoqqa xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan baholash mezonlari korxonada innovatsion faoliyat faolligini oshirishni rag'batlantirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda o'tkazilgan tahlillarga asoslangan holda Respublikamiz to'qimachilik sanoati korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar sifatida rag'batlantirish holatiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

To'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda KPI tizimini joriy etish mezonlari ishlab chiqilgan (1-rasm).



1-rasm. To'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda KPI tizimini joriy etish mezonlari¹

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamoada hamkorlikni oshirish, ma'naviy tadbirlarni o'tkazish, korxona uchun umum qabul qilingan qadriyatlarni o'rnatishga ko'proq e'tibor qaratish kerak, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot natijalari ish haqi miqdoridan qoniqish darajasining pastligini, erishilgan mehnat natijalarini iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish kerakligini, erishilgan muvaffaqiyatlarni davom ettirish, rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlarni shakllantirishni takomillashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Xodimlar innovatsion faoliyatini rag'batlantirish ularning korxonaga qo'shayotgan hissalariga mos kelsa yoki bu hissadan ortiq bo'lsagina ularning mehnat samaradorligi yuqori bo'ladi.

Korxonaning hayotiy siklining birinchi bosqichida korxona amalga oshirmoqchi bo'layotgan biznesning xususiyatidan kelib chiqqan holda uning missiyasi, aniq maqsad va vazifalari shakllantirib olinishi, korxonada ishlab chiqariladigan

¹ Muallif ishlanmasi

mahsulotlar, ko'rsatiladigan xizmatlar baholanishi kerak. Bu bosqichda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmini boshqaruvning usullari, uslublarini, tamoyillarini oqilona qo'llash, boshqaruv tuzilmalarini shakllantirish orqali takomillashtirish tavsiya etiladi.

Boshqaruv vakolatlarining o'sishi kompaniyaning rivojlanishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq emasligi bois, hayotiy siklning ikkinchi bosqichida mehnat intensivligi darajasi bilan uning motivatsiyasi o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bu bosqichda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirishda boshqaruv mexanizmini markazsizlashtirish, vakolatlarining o'sishi bilan vazifalar va majburiyatlarni bajarish o'rtasidagi muvofiqlikni o'rnatadigan xodimlarning motivatsiyasini o'rganadigan bo'limni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Korxona hayotiy siklining uchinchi bosqichida ishchi xizmatchi xodimlar hamda ishchilar guruhining innovatsion faolligini oshirishni rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish kerak, deb hisoblaymiz. Mazkur bosqichda xodimlarni boshqarish bo'limining vazifalarini kengaytirish va korxonani innovatsion rivojlantirish bo'limi mutaxassisi lavozimini tayinlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich yetuklik bosqichi hisoblanib, bu bosqichda korxonaning innovatsion faoliyati keng ko'lamda rag'batlantiriladi. Bu ishlar maxsus funksional bo'lim tomonidan amalga oshiriladi.

Beshinchi bosqich korxona hayotiy siklining qarish-hamkorlik orqali o'sish bosqichi hisoblanib, mazkur bosqichda korxonadagi korporativ madaniyat kuchayadi. Korxona ishchi xizmatchilar orasidagi o'zaro munosabat, xususan ishchi bilan ishchi o'rtasidagi munosabat, ishchining jamoaga bo'lgan munosabati, jamoaning ishchiga bo'lgan munosabati, ishchining rahbarga va rahbarning ishchiga bo'lgan munosabati, jamoadagi iliq do'stona muhit, shaxslaro yuzaga keladigan nizolar, rahbar bilan xodim o'rtasida yuzaga keladigan nizo, ularni boshqarish — bularning hammasi korxonada formal va noformal guruhlarining yuzaga kelishini, ularning faoliyatini boshqarishni taqozo etadi.

O'zbekiston hozirda katta va ko'p yo'nalishlarga ega bo'lgan to'qimachilik sanoatiga ega. To'qimachilik sanoatining respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 4,8 %ni tashkil etadi, sanoat mahsulotining 25 %i, ishlab chiqarish asosiy fondlarining 13 %i to'g'ri keladi. Shu bilan birga, unda respublika sanoat xodimlarining 32 %i mehnat qilmoqda.

Tarmoqni 2020-2030- yillarda rivojlantirishning strategiyasida 2025- yilga borib, respublikamizda yetishtirilayotgan paxta xom ashyosining 100 %ini respublikamizda qayta ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini esa 4,3 marta oshirishning ustuvor yo'llari belgilangan.

2023-yilda tarmoq korxonalarida tayyor ip gazlama, shuningdek, tayyor trikotaj matolari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qiymati 591mln.dollarga teng bo'lgan jami 72ta loyiha ishga tushirildi. Ishga tushirilgan loyihalar hisobiga jami 17165 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. 2022 - yil 2022 - yilga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1976,9 mln.dollarga ortdi. 2019 – 2023 - yillarda tarmoqning innovatsion faoliyatini boshqarish ishlab chiqarishni texnikaviy va texnologik qayta qurish, modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Fikrimizcha, istiqbolda modernizatsiyalash va qayta qurish bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlash tarmoqni rivojlantirishning quyidagi jihatlariga qaratilgan bo'lishi kerak:

aralash tolali va texnik gazlamalarni ishlab chiqarish;
xorij bozorlari talablariga mos to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish;
xalqaro bozorda "O'zbek tekstili", "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" brendini rivojlantirish.

Zamonaviy sharoitda innovatsiyalarga yo'naltirilgan korxonalarni faollashtirish siyosati alohida dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi.

Rag'batlantirish, mukofotlash tizimi shaffof va sodda bo'lishi kerak. Ekspertlar jamoasi o'rgangan bugungi ko'plab ichki IT-dasturlar barcha xodimlarga bal yoki layk ko'rinishidagi "byudjet" beradi va ular bir necha soniya ichida hamkasblarini mukofotlash uchun foydalanishi mumkin. Bu muayyan odamlarni ajratib ko'rsatish va ularni qolganlarga ko'rinadigan qilish imkonini beruvchi muhim variantdir. Dasturlarni kompaniyaning qadriyatlari va maqsadlariga moslashtiriladi.

Ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlarning muvaffaqiyati, asosan, yangi kompaniyalarni yaratish uchun shart-sharoitlarni umumiy yaxshilashga, o'sish yo'lidagi to'siqlarni kamaytirishga (kichik biznesdan o'rta biznesgacha), yangi yoshlar sinfining dinamik kengayishini rag'batlantirishga, innovatsion tadbirkorlar va aholining o'z ixtirochilik salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga bog'liq.

Yangi yuqori texnologiyali biznesning paydo bo'lishi va uni samarali rivojlanishning asosiy yo'nalishlari:

innovatsiyalarning dastlabki bosqichlarida, shu jumladan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida ilmiy-texnika sohasida kichik korxonalar shakllarini rivojlantirishga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini, shuningdek mintaqaviy darajada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan fondlarni, moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish;

kichik innovatsion korxonalarda xususiy investorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish;

talabalar innovatsion firmalarini yaratish va faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish.

Tijoratlashtirish, mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi istiqbolli texnologiyalarni tatbiq etish bilan shug'ullanadigan turli markazlarning tashkil etilishi, umuman, milliy iqtisodiyot darajasida innovatsion model muvaffaqiyatining ijobiy omili hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Innovatsion jarayonlarni boshqarish — innovatsion jarayon yoki faoliyatga nisbatan boshqaruvning asosiy funksiyalari — tashkil etish, me'yorlashtirish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tartibga solish taomillarini tatbiq etish hisoblanadi.

2. To'qimachilik korxonalarida tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion jarayonlarni oqilona boshqarish, xomashyodan samarali foydalanish imkonini beradi.

3. To‘qimachilik korxonalarida amalga oshiriladigan innovatsion jarayonlarning yana bir yo‘nalishi trikotaj ishlab chiqarish texnologiyasiga o‘zgartirishlar kiritish orqali trikotaj matosining fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashdir.

4. Respublikamizda 2019 – 2022 yillarda tarmoqning innovatsion faoliyatini boshqarish ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurish, modernizatsiya qilish bo‘yicha loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, chora-tadbirlari turli iqtisodiy siyosat dastaklari, soliq va bojxona imtiyozlaridan samarali foydalanishga qaratilgan.

5. Mutlaqo yangi texnologiyalar ulushining ortishi ularni yaratish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq xarajatlarning ko‘payishi bilan birga modifikatsiyalangan texnika – texnologiyalar salmog‘i pasayishiga olib keladi hamda ilmiy-texnikaviy salohiyatning o‘sishi natijasi hisoblanadi. O‘shish tendensiyasi uzoq istiqbolda ham saqlanib qolsa, ijobiy natijalarga olib keladi.

6. Innovatsion faoliyatni boshqarishning xorij tajribasiga asoslangan holda, davlatning innovatsion siyosati samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga asoslanishi kerakligi tavsiya etiladi:

innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish bo‘yicha Qonunchilik asoslarini ishlab chiqish hamda joriy etish orqali mamlakat iqtisodiyotiga ixtirolarni va boshqa erishilgan yangiliklarni samarali tatbiq etish maqsadida mamlakatning mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyatidan foydalanish bo‘yicha davlat korxonalari, turli tashkilotlar va boshqa tuzilmalarning faoliyatini faollashtirish;

texnologiyani uzatish muammolari bilan shug‘ullanadigan umumdavlat markazini tashkil etish.

7. To‘qimachilik sanoatida innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llari:

innovatsiyalarni nomoddiy aktivlar sifatida hisobga olish orqali kapitallashuvning o‘sishi;

innovatsiyalarni tijoratlashtirish orqali daromad olish;

texnik, tashkiliy va boshqaruv ishlanmalarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish;

zamonaviy raqobatbardosh innovatsion bozor — yagona huquqiy, axborot va savdo makonini shakllantirish;

ilmiy-tadqiqot ishlarining, ilmiy va ishlanmalarning aniq maqsadlarini belgilashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saidvali Y. The innovative strategy of development of light industry of Uzbekistan //European journal of economics and management sciences. – 2015. – №. 2. – C. 44-46..

2. Юсупова Д.Т., Розиков А. Aspects of Organizing Esport-Oriented Textile Products and Export Development //International Journal of Research in Management & Business Studies.(IJRMBS 2020) Vol.

3. Юсупова. Д.Т. Background of the system quality management. International Journal of Advance and Innovative Research. Volume 6, Issue 1 (I): January - March 2019.

4. Yusupova D. Analysis of influence factors on Uzbekistan stock market development trends //Архив научных исследований. – 2020. – №. 21.